

Oriental Journal of Philology

ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:
<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>

**THE AXIOLOGICAL VALUE OF SPEECH ACTS*****Shirinxon Shuxratovna Dadabayeva****Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor**Fergana State University*[*shirindadabayeva@gmail.com*](mailto:shirindadabayeva@gmail.com)*Fergana, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: speech acts; axiolinguistics; values; illocutionary force; perlocutionary effect; politeness; commitment; discourse; cross-cultural pragmatics.

Received: 04.10.25

Accepted: 05.10.25

Published: 06.10.25

Abstract: Drawing on J. Searle's speech act theory in the Austinian tradition, this article argues that language use is never value-neutral: locutionary content, illocutionary force, and perlocutionary effect are each saturated with cultural values, ethical commitments, and social relations. Using a conceptual-analytic approach and an illustrative English mini-corpus, we operationalize "axiological load" across these three layers of linguistic practice. We propose a coding scheme for value-laden vocabulary, the conventional commitments associated with illocutionary types (assertives, directives, commissives, expressives, declarations), and socially consequential perlocutionary outcomes. Findings show that: (i) the locutionary layer transmits values through lexical appraisal, framing, and implicature; (ii) illocutionary acts embody rules that generate obligations, rights, or moral norms; and (iii) perlocutionary effects realize or contest norms in interaction. We integrate the analyses into a three-layer model linking semantic choices to normative force and social impact, and we outline theoretical and practical implications for axiolinguistics, discourse analysis, cross-cultural pragmatics, and translation.

NUTQ AKTLARINING AKSIOLOGIK QIYMATI***Shirinxon Shuxratovna Dadabayeva****Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent**Farg'ona davlat universiteti,*[*shirindadabayeva@gmail.com*](mailto:shirindadabayeva@gmail.com)

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: nutq aktlari; aksiolingvistika; qadriyatlar; illokutsion kuch; perlokutsion ta'sir; muloyimlik; majburiyat; diskurs, madaniyatlararo pragmatika.

Annotatsiya: J. Serlning nutq aktlari nazariyasi (J. L. Ostin an'anasiga tayangan holda) til qo'llanishi hech qachon qadriyatlardan xoli emasligini ko'rsatadi: lokutsion mazmun, illokutsion kuch va perlokutsion ta'sirning har biri madaniy qadriyatlar, axloqiy majburiyatlar hamda ijtimoiy munosabatlar bilan to'yingan. Ushbu maqolada konseptual-analitik yondashuv va ingliz tilidan tuzilgan namunaviy mini-korpus asosida til amaliyotining mazkur uch qatlamida "aksiologik qiymat" shakllantiriladi. Qadriyat yuklangan leksika, illokutsion turlarga (asertivlar, direktivlar, komissivlar, ekspressivlar, deklarativlar) xos konvetsional majburiyatlar hamda ijtimoiy perlokutsion uchun xizmat qiladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki: (i) lokutsion daraja leksik baholash, freym tanlovi va implikatura orqali qadriyatlarni uzatadi; (ii) illokutsion aktlar majburiyatlar, huquqlar yoki axloqiy me'yorlarni yaratadigan qoidalarni mujassam etadi, (iii) perlokutsion ta'sirlar amaliy muloqotda me'yorlarni ro'yobga chiqaradi yoki ularga e'tiroz bildiradi. Tahlillar semantik tanlovlarni normativ kuch va ijtimoiy ta'sir bilan bog'lovchi uch qatlamli modelga integratsiya qilinadi; aksiolingvistika, diskurs, madaniyatlararo pragmatika tarjima hamda baholovchi ma'noni saqlash zarur bo'lgan nazariy va amaliy implikatsiyalar taqdim etiladi.

АКСИОЛОГИЧЕСКАЯ ЦЕННОСТЬ РЕЧЕВЫХ АКТОВ

Ширинхон Шухратовна Дадабаева

Доктор философии по филологии, доцент

Ферганский государственный университет

shirindadabayeva@gmail.com

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: речевые акты; аксиолингвистика; ценности; иллюкутивная сила; перлокутивный эффект; вежливость; обязательства; дискурс; межкультурная прагматика.

Аннотация: Опираясь на теорию речевых актов Дж. Серля в остиновской традиции, статья утверждает, что использование языка никогда не является ценностно-нейтральным: локуторное содержание, иллюкутивная сила и перлокутивный эффект пропитаны культурными ценностями, этическими

обязательствами и социальными отношениями. На основе концептуально-аналитического подхода и показательного мини-корпуса английского языка операционализируется «аксиологическая нагрузка» на трех уровнях языковой практики. Предлагается схема кодирования для лексики с ценностной окраской, конвенциональных обязательств, присущих типам иллокутивных актов (ассертивы, директивы, комиссивы, экспрессивы, декларативы), а также социально значимых перлокутивных исходов. Показано, что: (i) локуторный уровень транслирует ценности через лексическую оценку, фрейминг и имплицатуры; (ii) иллокутивные акты воплощают правила, порождающие обязательства, права или моральные нормы; (iii) перлокутивные эффекты на практике утверждают или оспаривают нормы. Анализ интегрируется в трехслойную модель, связывающую семантический выбор с нормативной силой и социальным воздействием; обсуждаются теоретические и прикладные импликации для аксиолингвистики, анализа дискурса, межкультурной прагматики и перевода.

Kirish. J.Serl J.Ostin g‘oyalarini kengaytirib, “so‘zlashish — qoidalar bilan boshqariladigan xulq” ekanini ta’kidlaydi (Austin, 1962; Searle, 1979). Bu yondashuvda nutq aktlarining muvaffaqiyati ijtimoiy konvensiyalar va rollariga tayanadi; mazmun esa faqat haqiqat shartlari bilan cheklanmaydi. Aksiologiya — til va qadriyatlar kesishmasini o‘rganuvchi yo‘nalish — aynan shu nuqtada mazmun va me‘yorlar o‘rtasidagi tizimli aloqani ochib beradi. Ushbu maqola lokutsion, illokutsion va perlokutsion qatlamlar bo‘yicha qadriyatlarning ifodalanishini hamda ularning ijtimoiy munosabatlarga qanday ta’sir qilishini ko‘rsatadi (Searle, 1969, 1976).

Tadqiqot metodi va natijalari. Tadqiqot metodi 3 bosqichdan – shakl, material hamda jarayonlardan iborat. Shaklan konseptual-analitik tadqiqot doirasida ingliz tilidagi namunaviy mini-korpusdan foydalanildi; ba’zi joylarda o‘zbek tilidagi murojaat shakllari bilan taqqoslashlar berildi. Lokutsion qatlam uchun leksik baholash, freym tanlovi va implikatura ko‘rsatkichlari ajratildi (Grice, 1975). Illokutsion qatlamda kuch turlari (asertiv, direktiv, komissiv, ekspressiv, deklaratsiya) va ularning natijalari belgilandi. Perlokutsion qatlamda ijtimoiy ta’sirlar aniqlandi. Jarayon sifatida esa aksiologik xususiyatlar belgilandi va kuzatuvlar uch qatlamli modelga sintez qilindi. Tadqiqotda tavsifiy usuldan foydalanildi.

Natijalar. Tadqiqot natijasida quyidagi natijalarga erishildi:

1. Lokutsion mazmun oldindan baholash mazmunini yuklaydi. Leksik tanlov va freymlar axloqiy interpretatsiyani yo‘naltiradi; intonatsiya va kinoya esa yuzaki ma‘noni teskari qiladi. O‘zbek tilidagi “siz” va hurmat ko‘pliklari, ingliz tilidagi “sir/ma’am” kabi murojaatlar hurmat va ierarxiyani lokutsion darajada indekslaydi (Brown & Levinson, 1987).

2. Illokutsion kuch esa, asosan, me‘yorlarni shakllantiradi. Asertivlar haqiqatni, mas‘uliyatni, direktivlar buyruqlarni, komissivlar kelajakdagi majburiyatlarni, ekspressivlar samimiylik va axloqni yaxshilashni, deklaratsiyalar esa institutsional maqom o‘zgarishini bildiradi (J.Serl, 1969, 1976; J.Serl & Vandervecken, 1985; J.Serl, 1995).

3. Perlokutsion ta’sirlar me‘yorlarni amalda ro‘yobga chiqaradi yoki ularga qarshilik qiladi. Ularning turli kontekstlardagi ta’sirlari ko‘pincha assimetrik shaklda bo‘ladi (Heritage & Clayman, 2010; Brown & Levinson, 1987; Butler, 1997).

Muhokama. Qadriyatlarining qatlamliligi. Qadriyatlar til tizimida struktur darajada namoyon bo‘ladi: Lokutsion qatlam avvalo hodisani qanday nomlash orqali baholovchi mazmunni tanlaydi — masalan, “ishdan bo‘shatish” yoki “kadrlarni optimallashtirish” singari nomlashlar tinglovchida turlicha axloqiy va ijtimoiy baho uyg‘otadi; “Iltimos, eshikni yoping” bilan “Eshikni yop” o‘rtasidagi farq ham ayni shu darajada yuzaga chiqadi. Illokutsion qatlamda esa aytilgan gap nutqiy harakat sifatida kuch (force) kasb etadi: asertiv haqiqatga daxldorlikni, direktiv boshqaga ta’sir o‘tkazish niyatini, komissiv kelajak majburiyatini, ekspressiv ijtimoiy-axloqiy holatni, deklaratsiya esa institutsional maqomni belgilaydi; (Searle, 1969, 1995; Searle & Vandervecken, 1985). Perlokutsion qatlamda esa nutqiy harakatning ijtimoiy oqibatlari ro‘yobga chiqadi: bo‘ysunish yoki rad etish, birdamlikni mustahkamlash yoki stigmani kuchaytirish, ishonchni orttirish yoki obro‘ni tushirish kabi natijalar aynan shu bosqichda yuzaga keladi; demak, til nafaqat ma‘noni uzatadi, balki me‘yorlarni amalda ishlab chiqaradi yoki ularga qarshilik ko‘rsatadi. Shu tariqa lokutsion tanlovlar axloqiy bahoni “oldindan sozlaydi”, illokutsion kuch ularni normativ majburiyatga aylantiradi, perlokutsion ta’sir esa real ijtimoiy maydonda bu majburiyat va baholarning samaradorligini sinovdan o‘tkazadi (Searle, 1969, 1995; Searle & Vandervecken, 1985).

Xulosa. J. Serl nazariyasi aksiolingvistik nigohda ko‘rilganda, til faoliyatida uch qatlamli qadriyat tizimini yaqqol namoyon qiladi: lokutsion daraja baholovchi mazmun va ramkalarni (frame) tanlaydi hamda tinglovchining axloqiy orientatsiyasini “oldindan sozlaydi”; illokutsion daraja shu mazmunni normativ majburiyat va vakolat bilan mustahkamlaydi, ya‘ni aytilgan gapni haqiqiy da‘vo, buyruq, va‘da, kechirim yoki deklaratsiya sifatida kuchga kiritadi; perlokutsion daraja esa bu kuchning ijtimoiy oqibatlarini — bo‘ysunish yoki rad etish, birdamlik yoki stigmatizatsiya — amalda yuzaga chiqaradi. Shu tariqa mazmun (content) → kuch (force) → ta’sir

(effect) zanjiri tilning semantik tanlovlari bilan ijtimoiy me'yorlar o'rtasidagi bog'liqlikni tizimli tarzda ochib beradi (Austin, 1962; Searle, 1969, 1979, 1995).

Ushbu uch bosqichli ko'rinish kontekst moderatorlari (nutq aktining "mazmun → kuch → ta'sir" zanjirida natijani qachon, kimga va qaysi sharoitda kuchliroq (yoki sustroq) bo'lishini belgilab beradigan omil. Qisqasi, bir xil gapning illokutsion kuchi va perlokutsion natijasi kontekstga qarab o'zgaradi; ana shu o'zgartiruvchi omillar moderator deyiladi) orqali yanada nozik tus oladi: aynan shu omillar bir xil lokutsion birlikning illokutsion kuchini o'zgartirishi va perlokutsion natijalarni keskin boshqa izga yo'naltirishi mumkin. Natijada, til nafaqat ma'noni yetkazadi, balki me'yorlarni reproduksiya qiladi yoki transformatsiya etadi; ayni paytda, qadriyatlar tilning ichki tuzilishiga singganini ko'rsatadi.

Amaliy jihatdan, taklif etilgan kodlash sxemasi (leksik baholash, illokutsion majburiyatlar, perlokutsion oqibatlar) aksiolingvistika va diskursni tahlil qilishda, shuningdek madaniyatlararo pragmatika va tarjima (masalan, ingliz–o'zbek)da aksiologik kuchni saqlash va kompensatsiya qilish strategiyalarini tanlashda foydali vosita sifatida xizmat qiladi. Umuman olganda, Serlning konsepsiyasi til va qadriyatlar o'rtasidagi bog'liqlikni nazariy va amaliy darajada yoritib, keyingi empirik tadqiqotlar uchun mustahkam platforma yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Austin, J. L. (1962). *How to do things with words*. Oxford University Press.
2. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). *Politeness: Some universals in language usage*. Cambridge University Press.
3. Butler, J. (1997). *Excitable speech: A politics of the performative*. Routledge.
4. Grice, H. P. (1975). *Logic and conversation*. In P. Cole & J. L. Morgan (Eds.), *Syntax and Semantics 3: Speech Acts* (pp. 41–58). Academic Press.
5. Heritage, J., & Clayman, S. (2010). *Talk in action: Interactions, identities, and institutions*. Wiley-Blackwell.
6. J.Serl, J. R. (1969). *Speech acts: An essay in the philosophy of language*. Cambridge University Press.
7. J.Serl, J. R. (1976). *A classification of illocutionary acts*. *Language in Society*, 5(1), 1–23.
8. J.Serl, J. R. (1979). *Expression and meaning: Studies in the theory of speech acts*. Cambridge University Press.
9. J.Serl, J. R. (1995). *The construction of social reality*. Free Press.
10. J.Serl, J. R., & Vandervecken, D. (1985). *Foundations of illocutionary logic*. Cambridge University Press.